

TARIX FANI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА

Tarix fani o'qituvchi

Sayitxonova Barchinoy Axatovna

Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchi

Muhammadaliyeva Irodaxon G'ayratjonovna

Tarix fani o'qituvchisi

Axmatqulova Barnoxon O'ktamjonovna

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarix fanining o'qitishni ahamiyati va u haqida umumiy tushuncha borasida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Ta'lif, taraqqiyot, tarix, o'tmish, kompetensiya, insoniyat, amaliyot, voqe-a-hodisa, tafakkur.*

Biz bugun aniq va ravshan holda shuni bilamizki, ta'limga yangilanish albatta, ta'lif jarayoni orqali o'quvchini o'zi va yaqinlari kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, bu borada o'z taqdiriga ongli munosabatda bo'lib, tanlagen kasbiy faoliyatida o'zini-o'zi rivojlantira oladigan erkin, malakali, fidokor shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Mustaqillik tufayli o'z taraqqiyot yo'lidan borayotgan mustaqil O'zbekistonda yangicha fikrlay oladigandigan, bo'layotgan voqe-a-hodisalarga erkin va holisona munosabat bildiradigan ijodiy va tanqidiy mushohada yuritadigan muloqotning sir asrorlarini o'rgangan yoshlarni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratib kelinmoqda . Endilikda oliy ta'lif muassasalari oldiga faqatgina o'qimishli insonnigina emas, balki voqealarni oldindan ko'ra biladigan, to'g'ri qaror qabul qila olish uquviga ega, o'zini-o'zi rivojlantirish zaruriyatini tushunib yetadigan oqil va barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi qo'yilmoqda. Darhaqiqat, o'qimishli, ruhan tetik, sog'lom va jismonan baquvvat kishilargina istiqlol va taraqqiyot yo'lini bosib o'ta oladi. Jadalashib borayotgan bugungi axborot asrida tarixiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirish, jonajon diyoromiz tarixi hamda dunyo xalqlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish, talabalarga milliy davlatchiligidiz tarixi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligini anglatish, tarix faniga oid umumiyligi va kuchaytirilgan kompetensiyalarni shakllantirish albatta bugungi kunning eng dolzarb jihatidir. Shu nuqtai nazardan ajdodlarimizning ma'naviy me'rosi va jasoratlaridan ibrat olish, ularga munosib voris bo'lishga o'rgatish ham juda muhimdir. Tarixiy voqealarni idrok etishga yo'naltirish orqali ularning o'zligini anglash, shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradigan tushunchalar, milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kabi yuksak vaziofalarni o'z oldimizga qo'yish ham bugungi kunning eng muhim nuqtai-nazaridir.

“Tarixiy xotirasiz -kelajak yo'q”- degan edilar muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov. Darhaqiqat, kelajakni qanday qurish bu barchaning o'z qo'lida. O'z tarixini bilgan, millat tarixini bilgan kishi o'z kelajagini chiroyli bunyod etishi mumkin. Tarixdagi bobolarimizdan faxrlanish, ulardan o'rnak olish yoki ularning qilgan xatolarini takrorlamaslik hammaning o'z qo'lida. Kishining 1 soniya oldingi hayoti ham tarixdir.

Tarixda sodir bo'lgan shuhrtli voqealar yoki mudhish voqealarning barchasini 5 sinfdan to 11-sinf tarix fani darsliklaridan o'quvchilar o'rganishlari mumkin.

Tarix insoniyatning buyuk xotirasidir. Unda ajdodlarning ma'naviyati, madaniyati va amalga oshirgan ishlari mujassam. Tarixsiz kelajakka qadam bosib bo'lmaydi.

Tarixiy voqelikni tushunish va uni his eta olish bu talaba uchun ijodiy yondoshuvdir, albatta. Professorlar N.Muslimov va Sh.Sharipovlarning fikricha, ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun ularning har biriga alohida individual yondoshish lozim. Ijodiy fikrlashni rivojlantirishning eng muhim usullaridan biri ta'lim oluvchilarni turli darajadagi muammoli savollar yoki topshiriqlarni yechishga jalg etish, ularning yechimlarini mustaqil izlab topishga o'rgatishdan iboratdir. Amaliyotda ijodiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida muammoli savollar yoki topshiriqlardan foydalanish mumkin. Ijod muammoasi ustida ko'pgina qadimgi, o'rta asrlar, yangi davr va zamonaviy buyuk allomalarining fikrmulohazalari mavjud. Ijodni o'zgacha tushunish o'rta asrlarda, avvalo, "tarix ijodi" sifatida yuzaga keladi. O'rta asr tasavvuriga ko'ra tarix –bu insonlar ilohiyini olamda amalga oshirishda ishtirok etadi. Bu ijodni biror o'ziga xos va qaytarilmasligini yaratish sifatida tushunishning asosiga aylantiradi. Bunda ijod sohasi bo'lib, avvalo, tarixiy yaratuvchanlik, axloqiy va diniy amallar hisoblanadi. Badiiy va ilmiy ijod ikkinchi darajali bo'lib xizmat qiladi.

Tarix (arabcha: o'tmish; davr, vaqt, era; sana) — o'tmish voqealar haqida axborot ochish, yig'ish, tartiblashtirish va namoyish etish bilan shug'ullanuvchi fan. Tarix bilan shug'ullanuvchi olimlar tarixchilar, deb ataladi. Tarix fani voqealar ketma-ketligini tahlil etadi va ularning sabab va samaralarini tizimlashtiradi. Tarixchilar tarix tabiatini va foydasi ustida bahs olib borishadi. Bunda ushbu fanning o'zi ham o'rganiladi va zamonaviy muammolarni uning yordamida hal qilishga uriniladi. Biror madaniyatga oid, biroq tashqi manbalarga asoslanmagan hikoyalar (masalan, Alpomish haqida asotirlar) tarixiy mavzu emas, balki madaniy meros sanaladi. Tarix —

1) tabiat va jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayoni. Shu ma'noda olamning yaratilish tarixi, Yer tarixi, barcha fanlar tarixi va boshqa tushuniladi;

2) insoniyat va uning mahsuli bo'lgan tamaddunlar rivoji, jamiyat va davlatlar o'tmishi taraqqiyoti jarayonini o'rganuvchi fan.

Tarix fani — insoniyatning butun o'tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo'lgan voqeahodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda o'rganadi. Tarix fani ijtimoiy gumanitar fanlar (falsafa, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, san'atshunoslik va boshqalar) tizimining tarkibiy qismi. Tarix fanining bu guruhdagi o'rni uning tadqiqot predmeti va usullari bilan belgilanadi. Turli ijtimoiy va gumanitar fanlar jamiyat hayotining alohida jihatlarini o'rgansa, tarix fanining tadqiqot ob'yekti — aholi, jamiyat, mamlakat, davlat hayotining o'tmishi va hoziri haqidagi faktlarni yig'ish, taxlil qilish, to'plangan bilimlarni ma'lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan umumlashtirishdir

Tarixiy voqelikni bayon qilishda muhim bo'lgan tarixiy toponomik atamalar mazmunini tushuntira olish, tarixiy jarayon va voqealar haqida ma'lumot berishda qo'shimcha adabiyot va manbalardan foydalana olish, tarixiy-badiiy asarlar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlardan foydalanishda va ularga munosabat bildirishda axborot

madaniyatiga rioya qilish, tarixiy manbalarni mustaqil o'rganish, mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlar to'play olish, xulosalar chiqarish, baholash, mustaqil fikr bildirish, mavzu yuzasidan tarixiy adabiyotlarni mustaqil tanlay olish, mustaqil ishlar va taqdimotlar tayyorlay olish, o'z oilasining shajarasini tuza olish kabi muhim bo'lgan jarayon va vaziyatlar ta'lim olish davriyiligida muttasil tarzda talabalarga o'rgatib boriladi. Va shu bilan birgalikda sekin-astalik bilan talabalarda tarixiy voqelikni tushunish va uni his eta olish tuyg'usini shakllantiriladi.

Tarix fanini o'qitish va uni tinglovchilarga tushuntira olish esa, quyidagi vazifalar orqali amalga oshiriladi:

- ajdodlarimizning ma'naviy me'rosi va jasoratlaridan ibrat olishga, ularga munosib voris bo'lishga o'rgatish;
- doimo ajdodlar va ularning avlodlarga qoldirgan me'roslarini asrab-avaylashga undash;
- tinlovchilarni tarixiy voqealarni idrok etishga yo'naltirish orqali ularning o'zligini anglash;
- shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradigan tushunchalar, milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash;
- yetuk va malakali mutaxassis kadr bo'lish uchun albatta tariximizni chuqur o'rganish, shu bilan birgalikda tarixdan keraklicha saboq olish;

Tarix ta'limida tinglovchilar nimani bilishlari, nimani mustaqil o'qib olishlari, qanday muammolarni o'rganishlari muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar tarixiy hodisalarning mazmunini bilishdan tashqari, tarixiy voqealarni bir-biri bilan taqqoslay olishlari, mustaqil fikr yuritib, ularga baho berishlari, voqealar mohiyatini tushuntira olishlari, yozma ifodalay olishlari zarur. Birinchi darajali voqealardan ikkinchi darajalisisi farqlay olishlari, ularni ijtimoiy tahlil qilib, xulosalar chiqara olishlari har tomonlama muhimdir.

Hozirgi zamon tarix fani alohida bo'limlar va sohalardan tashkil topgan bilimlar majmuidir. Ixtisoslashish darajasiga ko'ra, ularni bir necha guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhnini jamiyatning (jahon tarixi) butun va alohida tomonlarini o'rganuvchi bo'lim va sohalar tashkil qiladi. Insoniyat tarixinining ayrim hodisalari alohida o'rganiladi. Jahon tarixi ibridoijamiat tarixi, o'rta asrlar tarixi, yangi va eng yangi tarixga bo'linadi. Hududiy-geografik tamoyilga ko'ra, tarixan bir-biri bilan bog'liq yirik regionlar (Yevropa va dunyoning boshqa qismlari, Qadimgi Sharq, O'rta Osiyoning ba'zi regionlari) va alohida mamlakatlar hamda xalqlarga ajratiladi. Kompleks muammolarni tadqiq qilish bir guruhan mamlakat va xalqlar tarixida ro'y bergan bosqichiy davrlarni va hodisalarni (Uyg'onish davri, Reformatsiya tarixi va boshqalar) o'rganish zaruratidan kelib chiqadi. Jahon tarixiga global yondashuv bilan bir qatorda mikro tarix (shahar va qishloqlar, alohida shaxslar, kundalik maishiy turmush) ham o'rganiladi. Tarixning alohida tomonlarini o'rganish tarix fanining alohida sohalarini ajratishni taqozo qildi (masalan harbiy tarix, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, din, fan, xotinqizlar tarixi va tender tadqiqotlari, san'at, intellektual, madaniyat, diplomatiya tarixi va boshqalar).

Ikkinchi guruhnini yordamchi va maxsus tarix fanlari tashkil qiladi. Ularni alohida tarix fanlariga ajratilishi va rivojlanishi tarix fanining xususiy tadqiqot usullarini ishlab chiqish

zaruratidan kelib chiqadi. Antropologiya, arxeologiya, etnografiya mustaqil o‘ringa ega. Yordamchi tarix fanlariga — manbashunoslik, arxeografiya, paleografiya, geraldika, numizmatika kiradi. Maxsus guruh — boshqa fanlar ehtiyojidan kelib chiqadi (mas., tabiiy fanlar tarixi, texnika tarixi, davlat va huquq tarixi). Tarix fanining tarixini tarixshunoslik fani o‘rganadi.

Umumiy tarzda xulosa qilib aytish mumkinki, tarix insoniyatning buyuk xotirasi, zero, tarixsiz kelajakka qadam bosib bo‘lmaydi. Tarixdan olingan ma’lumotlar, xulosalar va faxr tuyg‘usi inson uchun kelajakka qo‘yiluvchi ishonchli qadam manbai bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev. “Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi” “O’zbekiston” T.: 2022
2. R.B.Yarmatov. Bo’lajak tarix o’qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishda loyihalashtirishning amaliy asoslari. (O’quv qo’llanma). – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2022, 46 b
3. Tulenov J., Jabborov T. Tarixiy ongni rivojlantirish –davr talabi.- T.: Mehnat, 2000. - 7 b.
4. E.Migranova, Sh.Pozilova. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish. T.: “Aloqachi”, 2017 y, 5- 6 betlar
5. Abdullayeva D.S. Milliy tarixiy xotiraning mohiyati va rivojlanishining o’ziga xos xususiyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil).: Dis. ... fal.fan.nom. –T., 2006. – 115 b.